IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 7,245 MAXSUS SON, VOLUME 5, ISSUE 1,2023

SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI ISHLAR HAQIDAGI QARASHLAR

Muallif	**Umarova Dilnoza Dilmurod qizi**
O'qish yoki ish joyi	**Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti**
Qabul qilindi	**25.09.2023**
Nashr qilindi	**29.09.2023**

Annotatsiya

Hozirgi kunda dunyoning barcha davlatlari kun sayin rivojlanib borayotgan bir vaqtda har bir yurt avvalo o'z ta'lim tizimiga katta e'tiborni qaratishi ayni muddao hisoblanadi. Shu bilan birga bizning jonajon yurtimiz O'zbekiston ham bundan holi emas, ya'ni ayni vaqtda yurtimizdagi ta'lim va tarbiyaga bo'lgan e'tibor va qarashlar kundan kunga ortib yuksaklikka intilmoqda. O'quvchilarni qiziqishlarini kasbga va har qanday sohaga bo'lgan intilishlarini hisobga olgan holda barcha ta'lim muassasalari hususan bog'chalarda ham o'zgarishlar juda katta. Shunday ekan ushbu maqolamiz ta'limdagi yangiliklar va o'quvchilarning qiziqishlari va ularni qiziqtirish yo'llari to'g'risida olib borilayotgan islohotlar haqida bo'ladi.

Kalit so'zlar

O'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, barkamol shaxs, pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi, bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari, sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari, «Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi, ta'limiy ahamiyati, tarbiyaviy ahamiyati, sinfdan tashqari ishlarning turlari, shakllari, to'garak turlari.

Аннотация

В настоящее время, когда все страны мира развиваются изо дня в день, необходимо, чтобы каждая страна в первую очередь уделяла большое внимание своей системе образования. Вместе с тем, наша родная страна Узбекистан не является исключением, то есть внимание и взгляды на образование и воспитание в нашей стране стремятся с каждым днем все выше и выше. Учитывая интерес учащихся к профессии и стремление к какой-либо сфере деятельности, все учебные заведения в частности в детских садах также произошли значительные изменения. Таким образом, наша статья будет посвящена инновациям в образовании и проводимым реформам, касающимся интересов учащихся и способов их мотивации.

Ключевые слова
Содержание учебно-воспитательной работы, компетентная личность, педагогический коллектив, классный руководитель, руководство молодежными организациями, детскими самоуправляющимися организациями, основные формы внеурочной работы, понятие «внеурочная и внешкольная образовательная работа», образовательная значимость, виды, формы, виды кружков внеурочной работы.

Annotation
Currently, at a time when all the countries of the world are developing every day, it is considered that each country first of all pays great attention to its educational system. At the same time, our native Uzbekistan is not without it, that is, at the same time, the attention and views on education and upbringing in our country are growing day by day. Taking into account the interest of students in their aspirations for the profession and in any field, all educational institutions especially in kindergartens, the changes are huge. So this article will be about the innovations in education and the ongoing reforms about the interests of students and ways to interest them.

Key words
A component of educational educational work, a competent person, a pedagogical team, a class leader, the leadership of youth organizations, self-government organizations of children, the main forms of extracurricular work, the concept of "educational and extracurricular activities", educational significance, educational significance, types of extracurricular work, forms, types of circles.

Bugungi kunda yurtimizda va boshqa davlatlarda ham umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini unumli tashkil etish shakllaridan biri hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy mohiyati va vazifasi o‘quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratishidadir. Sinfdan tashqari ishlarga o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg‘ulotlar tizimi kiradi.

Bunday mashg‘ulotlar asosan pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o‘z-o‘zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi. O‘quvchilarning sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o‘quvchilar saroylari, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi. [1]

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993 -yilda tasdiqlangan. [4] Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bolishi, xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan borliq jarayonini qayta korib chiqishni taqozo etmoqda. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Manaviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish tog`risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g`oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllari ommaviy ishlar ya'ni maktab klublaridagi tadbirlar, turli kechalar, munozara va tanlovlar o'tkazish, turli hildagi viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga sayohatlar o'tkazish, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish, to'garak ishlari, mustaqil ishlar bunda o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik bilan mustaqil shug'ullanishlarini ko'rsatish mumkin. [1] Bu ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan sinf xonalarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklda bo'lishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan har bir dars mashg'ulotlarida oqilona foydalanish ko'zda tutiladi.

Sinfdan tashqari ishlar 2 turga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy. Ta'limiy ahamiyati – o'quvchilarga qo'shimcha bilim, malaka va konikmalar berish. Tarbiyaviy ahamiyati esa o'quvchilarning ijodiy faoliyat ko'rsatishiga, nutq odobiga, mustaqil fikrlashiga zamin hozirlash hisoblanadi. [3]

Boshlangich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning shakllari esa 3 guruhga bo'linadi. Bular sinfdan tashqari ishlarning ma'lum darajada bir-biridan ajralib turishi uchun xizmat qiladi desak adashmagan bo'lamiz, ya'ni sinfdan tashqari ishlarning turlari

qo'llanilayotgan mashg'ulot turiga qarab ajratishimiz mumkin. Boshlangich sinflarda sinfdan tashqari ishlarning shakllari:

- Og`zaki ish usullari.
- Amaliy ish olib borish usullari.
- Ko'rgazmali ish usullari.

Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

- Fan to'garaklari.
- Mohir qollar.
- Duradgorlik.
- Sport musobaqalari.
- Badiiy havaskorlik. [5]

Sinf rahbarining asosiy vazifasi o'ziga ajratilgan sinfda barcha ta'limiy tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish, yo'naltirish va muvofiqlashtirishdan iborat. Sinf rahbari o'z faoliyati davomida o'z sinfini va alohida-alohida har qaysi o'quvchini individual ravishda o'rganib borishdan boshlaydi. Ma'naviyati boy bo'lgan sinf rahbari o'quvchilar bilan alohida ishlashni amalga oshirishi, o'quvchilarga o'z ta'sirini yetrali darajada o'tkazishi, metodlarini mohirlik bilan qo'llashi kerak. Sinf rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanishi, o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida turli metod va o'yinlardan foydalanishi va bolalar ijodiy qobiliyatini o'stirishida, ularni har tomonlama kamol toptirishda katta yordam beradi va shu bilan birga o'z hissasini qo'shadi.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishlari lozim. Sinfdan va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashini tog`ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga yordam beradi. Nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan chambarchas bog`lanishiga zamin yaratadi. Qachonki ushbu usullar bolalarning kichik sinfdaligidan boshlansagina ular katta guruhlarga o'tishganda qiynalishmaydi va bu ularning bilim olishlari va vaqtdan samarali foydalanishlarida qo'l keladi. Shu orqali o'quvchilar ulg'ayishganda o'z kasblarini tanlashda qiyinchiliklarga yo'l qo'yilmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar shaxsni har tomonlama kamol toptirish va uni faoliyatga tayyorlash uchun keng imkoniyatga ega. Bu ishlar

bolalarning qiziqishlariga muvofiq tarzda ko'ngillilik asosida tashkil qilinadi. O'quvchilar sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'zlarini qiziqtiradigan mashg`ulotlarni tanlab olishadi va ularda mustaqil tashabbuskorona ishtirok etishadi. Maktab va maktabdan tashqari muassasalarning tashkiliy ishlarini, mazmuni va maqsadini belgilash bugungi kunimizning barcha qirralarini hisobga olishni talab etmoqda. Sinf va maktabdan tashqari mazkur tarbiyaviy ishlar shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi. Va shu bilan birga asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. wikipedia.org
2. Umumiy pedagogika o'quv-uslubiy majmua
3. "Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishning ilmiy va nazariy asoslari" D.F. Nasimova, S.F. Tilavov
4. Sinfdan tashqari ishlarning mazmuni va uning ilmiy nazariy asoslari.
5. "Pedagogika" R. Mavlonova, O. To'rayeva, K. Xoliqberdiyev T- "O'qituvchi" 2002.
6. Имомова Ш.М., Норова Ф.Ф. Учебные методы организации спортивно оздоровительных мероприятий в образовательных учреждениях // ВЕСТНИК НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ 2021. № 9 (112). Часть 2. С.38-41.

WORDLY KNOWLEDGE